



International Conference on Adaptive Learning Technologies

International Conference on Adaptive Learning Technologies - is an online world scientific boletin to publish academic research papers from various fields. Conference procedures will be published after peer review by different reputable and top researchers from different scopes.

TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA O`QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Qurbonova Shoira Narzullayevna

Buxoro davlat universiteti o`qituvchisi

Pamazonova Sarvinoz Ravshan qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada boshlang`ich sinf tabiatshunoslik darslarida ekologik tushunchalarni rivojlantirish mazmuni, o`qitish metodlari, shakl va vositalarini uyg`unlashtirish, shuningdek, o`quvchilarning ekologik madaniyatini oshirish, tabiat go`zalligini his qilish, uni asrash tuyg`ularini va shaxsiy hayotiy dunyoqarashni to`g`ri shakllantirish jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, ekologik madaniyat, tabiat, ekologik ma'sul-yat, tabiiy resrus, tabiiy muhit, tabiat omillari, ekologik madaniyatli shaxs, ekologik tarbiya omillari, tabiatshunoslik, artofimizdagi olam.

O`quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish “munosabat”, “mas`ullik”ni tarbiyalashda namoyon bo`lganligi. O`quvchilarda atrof-muhitga mas`uliyatli munosabatni shakllantirish imkoniyatlari: tasavvurlarning nisbatan yuqori darajasi, atrof- muhit haqidagi axborotlarga qiziquvchanlik bilanq arash, atrof-muhitdagi ob`yektlar va hodisalarga hissiy javob berish qobiliyatining mavjudligi. Ma`lumki, bola shaxsi o`zaro va bioijtimoiy munosabatlar tizimida tarkib topadi. Bu munosabatlarni keltirib chiqaradigan asosiy manba - bolaning hissiy bilish jarayoni va o`yin faoliyatidir. Demak, bola shaxsiga xos bo`lgan barcha «psixologik holat va jarayonlar ijtimoiy hayot hamda atrof-muhit ta`sirida vujudga keladi. Bola o`z faoliyati jarayonida o`zini o`rab turgan tabiiy va antropogen ta`siri va hodisalar mohiyatini bilib oladi. Bolaning atrof-muhitni hissiy bilish jarayoni o`z mohiyati va xususiyati jihatidan bir- biridan shartli farq qiluvchi uch bosqichdan iborat bo`ladi .Zero, hissiy bilish bolaning sezgilariga bevosita ta`sir etgan tashqi atrof-muhit (tabiat) va uning alohida xossalarining ko`rinishlar, qiyofalar, tasvirlar, manzaralar shaklida miyasida aks etishidir. Bola o`zini o`rab turgan atrof-muhyt va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq- sovukdigini terisi bilan, suyuqliklarning ta`mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil ob`yektlarning rangini ko`zi bilan, tovushlarni qulog`i bilan sezib, ya`ni mazkur xossalar bolaning besh turli sezgisiga ta`sir etib, shu a`zolarida joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to`g`risida bilim paydo bo`ladi, ularning ko`rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi. O`quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish “munosabat”, “mas`ullik”ni tarbiyalashda namoyon bo`ladi. Bunday muiosabat insoniyatning,

xususan, ayrim odamlarning bilib-bilmay, uzoqni o'ylamay tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi. Ayrim bolalarning tabiat qo'ynidagi xulq-atvori va faoliyatini kuzatish shuni ko'rsatdiki, ularning ayrimlari eng chiroyli va noyob gulni uzib olishga, hech bir zaruriyatsiz shox-shabbalarni sindirishga, qushlar va boshqa jonivorlarga ozor yetkazishga, gulxan yoqish uchun yosh nihollarni chopib-qirqishga va hokazolarga intiladilar.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish maqsadida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, shu maqsadda ta'lim- tarbiya mazmuni, vositalari, shakllari va metodlari tizimini loyihalash, natijalarni oldindan bashorat qilish hamda tashxis qilish amalga oshirildi. Bunda atrof-muhit, maktab oila va jamoatchilikning hamjihatlikdagi harakati ham nazarda tutilib, majmuaviylik tamoyiliga amal qilindi. Mazkur loyihaga tayanilgan holda «Tabiat bilan tanishtirish» va boshqa ehtiyojga asoslangan mashg'ulotlarning har bir mavzusi bolalarda atrof- muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga oid talablar bilan ilk bor ilmiy-metodik jihatdan boyitildi. Masalan, o'simlik bor joyda, suv ham bo'ladi. Shuningdek, daraxtlar, o'rmon havoni namlantiradi, tozalaydi; issiq va sovuq havoni mo'tadillashtiradi; chuchuk suv sog'lik va tozalikni ta'minlaydi, chuchuk suvning kamligi, suvning ifloslanishi; havoning ifloslanishi, zaharlanishi mumkinligi, iflos, zaharli havo odam uchun zararli ekanligi; o'simlik barglarining havodan oziqlanishi, havoga toza havo - kislorod chiqarishi va hokazo tushunchalar kiritildi. Bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish bo'yicha tajribaviy maktablarda sinovdan o'tkazilgan metodlar, tashkiliy shakllar va vositalar ham asoslab beriladi. Bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi ekologik ta'lim va tarbiya mazmuni bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi ekologik ta'lim va tarbiya vositalari, shakllari va metodlari biologiya fani o'qituvchisining ekologik madaniyati va ekopedagogik mahorati bolalarda ota-ona, oila a'zolarining ekopedagogik hatti-harakati maktabda ijtimoiy-ekologik muhit, tevarak-atrofdagi ijtimoiy-ekologik muhit, odamlarning ekologik yurish-turishi, ijtimoiy buyurtma: bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish zaruriyati, maqsadi va vazifalar, yangi ekopedagogik texnologiya: ta'lim va tarbiya metodikasini loyihalash hamda bashorat qilish, bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatning shakllanganlik monitoringi, diagnostikasi va ijtimoiy buyurtmaning bajarilganligi, tajriba-sinov ishlari jarayonida tanlangan metodlar, vositalar va tashkiliy shakllardan keng foydalanildi. Jumladan, bolalar bilan tajribaviy kuzatish ishlari ham amalga oshirildi. Bunda modellashtirilgan kuzatish ob'yekti maxsus ravishda qayta vujudga keltirildi. Xususan, sinfxonaning deraza va eshiklari yopilib, bir necha daqiqa tashqarida bo'lingach, yana xonaga qaytib kirildi va xona havosi bilan tashqaridagi havoning farqi:issiq-sovuqligi, namligi, musaffoligi aniqlandi, xonani shamollatib turishning ahamiyati tushuntirildi, sabab- oqibat bog'lanishlari o'rnatildi. Tadqiqotda har bir metod, shakl va vosita asoslandi. Shuningdek, bolalardan uyga borish-kelish yo'lida, ko'chada tengdoshlari va yoshi katta odamlar tomonidan atrof-muhitga qanday zarar yetkazayotganligi:

- yuvindi va iflos suvlarning ko'chaga sepilishi;
- yo'l bo'ylariga axlatlar va chiqindilarning tashlab ketilishi;
- xazon va axlatlarning yoqib yuborilishi;
- quvur suvlarining ko'chaga oqizilishi;
- daraxtlarning kesilishi yoki shox-shabbalarining sindirilishi;
- qushlarga tosh otishlar vositasida ozor berilishi;

Xulosa qilib aytganda, bolalarga tabiatshunoslik fanlaridan bilim berishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda xilma-xil zamonaviy metod, usullardan foydalanish yuqori natija beradi. Ayniqsa, darslarni interfaol usullarda tashkil etish, integrasion ta'lim texnologiyalardan foydalanish o'qituvchidan ko'p mehnat talab qilsa-da, o'quvchilarni aniq, tez, lo'nda javob berish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, ijodiy faoliyatga yo'naltiradi. Ularni fikrlash doirasi kengayadi, ijodkorligi, dunyoqarashi yanada oshadi. Bu dars samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun poydevor tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mukhamadovna, T. M., Djamshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2023). Art as a significant factor of forming world outlook of students.
2. Qurbonova, S. N., & METODLARDAN, A. F. T. D. I. FOYDALANISH//Scientific progress.– 2021. T, 2(6), 1030-1035.
3. Kurbanova, S. (2021). TEXNOLOGIYA DARS JARAYONIDA TALABALARNING MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 3(3).
4. Kurbanova, S. (2020). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ ТУРЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ: ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ ТУРЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
5. Kurbanova, S. (2021). Barkamol avlodni shakllanishida talim jarayonini orni va unda zamonaviy oqitish texnologiyalaridan foydalanish yollari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
6. Kurbanova, S. (2020). TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN STUDENTS IN PRIMARY SCHOOL. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
7. Курбанова, Ш. Н. (2020). Преподавание математики в начальных классах. In European reseach: innovation in science, education and technology (pp. 97-100).
8. Qurbonova, S. N., & Abdullayeva, F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.
9. Narzullaevna, K. S., & Nilufar, T. (2021). Methodology for conducting technology lessons on working with paper and cardboard. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 588-596.
10. Narzullaevna, K. S. (2021). The Role of Educational Process in the Formation of a Harmoniously Developed Generation and Methods of using Modern Teaching Technologies. International Journal of Human Computing Studies, 4(1), 25-28.
11. Narzullaevna, K. S., & Nilufar, T. (2021). Methodology for conducting technology lessons on working with paper and cardboard. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 588-596.
12. Курбанова, Ш. Н., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса. новые педагогические исследования: сборник статей IV, 20.
13. Kurbanova, S. N., & qizi Razzoqova, N. B. (2022). BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONINING O'RNI VA UNDA ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI. Педагогика и

психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(10), 84-88.

14. Kurbanova, S. (2020). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Қурбонова Шоира Нарзуллаевна. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1). Yunus, Y., &

Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.

15. Kurbanova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIGA INTENSIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27(27).

16. Khamroev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 549-558.

17. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).

18. Jobir o'g'li, Y. M., & Roziyabonu, S. (2022). 1-SINF МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА ГЕОМЕТРИК МАТЕРИАЛЛАРНИ О'RGATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 132-137.

19. YARASHOV, M. (2022). Characteristics of International Integration of Sciences in Primary Schools. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 23(23).

20. YARASHOV, M. (2023). The Place of Digital Technologies in the Education System. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).

21. Jobirovich, Y. M. (2022). TOOLS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATIONAL COURSES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 2(4), 119-123.

22. Hamroyev, A. (2022). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH ZAMONAVIY TA'LIM KONSEPSIYASINING ASOSI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 35-37.